



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




№4(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,  
27-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов .....	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi .....	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish .....	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	41
<i>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik .....	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) .....	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки .....	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari .....	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida .....	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi” .....	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati .....	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darolarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi .....	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness .....	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi .....	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri .....	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari .....	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari .....	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari .....	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darolarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari .....	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darolarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati .....	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish .....	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari .....	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari .....	198
<a href="#">Salomov Abdurasul Axmadovich</a>	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi .....	201
<a href="#">Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
<a href="#">Sojida Safarova Saxadin qizi</a>	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
<a href="#">Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</a>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	210
<a href="#">Xoldorova Mashxura G'ulomovna</a>	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов .....	214
<a href="#">Нурбаев Бахтиёр Широнович</a>	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
<a href="#">To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</a>	

# TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Oblakulova Nodira Abduvali qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Integrativ yondashuvning talabalarning bilimlarni chuqur o'zlashtirish, mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, integratsiyaning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, ta'lim, ta'limda integratsiya, fanlararo integratsiya, pedagogika, psixologiya, ta'lim samaradorligi, integrativ dars, bilish jarayoni, integrativ yondashuv.

**Abstract:** This article discusses the pedagogical and psychological foundations of using interdisciplinary integration in the educational process. The role of an integrative approach in enhancing students' deep understanding of knowledge, logical thinking, and creative abilities is analyzed. In addition, the importance of integration in improving the effectiveness of education is substantiated.

**Key words:** integration, education, integration in education, interdisciplinary integration, pedagogy, psychology, educational effectiveness, integrative lesson, cognitive process, integrative approach.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются педагогические и психологические основы использования межпредметной интеграции в образовательном процессе. Проанализирована роль интегративного подхода в глубоком усвоении знаний учащимися, развитии логического мышления и творческих способностей. Также обосновано значение интеграции в повышении эффективности обучения.

**Ключевые слова:** интеграция, образование, интеграция в образовании, межпредметная интеграция, педагогика, психология, эффективность обучения, интегративный урок, познавательный процесс, интегративный подход.

## KIRISH

“Integratsiya” so’zi bir so’zdan iborat bo’lsa-da, uning mazmun-mohiyati juda keng va terandir. U tashqi ko’rinishda sodda tuyuladi, ammo mohiyatida ko’plab tushunchalarni, jarayonlarni va bog’liqliklarni mujassam etadi. Tabiatga nazar tashlasak, integratsiya har qadamda namoyon bo’ladi. Yer va osmon o’rtasidagi uyg’unlik, suv va tuproqning birlashuvi hayot degan mo’jizani yaratadi. Inson tafakkuri ham shunday – bilimlar bir-biri bilan tutashganda fikr teranlashadi, qarash kengayadi, ijod esa kuchayadi. Hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda umumiy integratsiya jamiyat taraqqiyotining muhim va ajralmas omiliga aylanmoqda. Zamonaviy dunyoda tabiat, jamiyat va inson faoliyati o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik tobora kuchayib, ularning bir butun tizim sifatida qaralishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, umumiy integratsiya bugungi kunda nafaqat nazariy tushuncha, balki barqaror rivojlanishni ta’minlovchi amaliy zarurat sifatida namoyon bo’lmoqda. Xo’sh, integratsiya o’zi nima degan savolga javob topamiz.

“Integratsiya” so’zi lotincha integratio – tiklash, to’ldirish, integer – butun so’zidan kelib chiqqan. Ikki tushunchaga egamiz:

- 1) tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarining bog’liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;
  - 2) tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Integratsiya tushunchasini yanada aniqroq va to’liqroq tushuntirib berish mumkin:
- *birinchidan*, rivojlanish, ya’ni obyektida yangi jihatlar, xossa va sifatlar paydo bo’lishi bilan;



- *ikkinchidan*, yangida eskining rivojlangan elementlari, tomonlari va an'alarining saqlanishi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiya rivoji bilan bevosita bog'liq.

XXI asr – bu axborot, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar asri, shuning uchun zamonaviy insondan faqatgina bir sohani bilish emas, balki turli yo'nalishdagi bilimlarni uyg'unlashtira olish talab etiladi. Ta'lim insonni komil shaxs sifatida shakllantiradigan, uning ongini, tafakkurini va dunyoqarashini boyitadigan eng muhim ijtimoiy jarayondir. Ta'lim orqali inson nafaqat bilim oladi, balki hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar va kasbiy ko'nikmalarni ham egallaydi. Ta'lim jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Har qanday rivojlangan davlatning asosida kuchli ta'lim tizimi yotadi. Masalan, UNESCO ta'limni insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida e'tirof etadi va dunyo miqyosida sifatli ta'limni ta'minlashni ustuvor vazifa deb biladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika fanida ta'lim nafaqat ma'lumot berish, balki tarbiyalash, dunyoqarashni shakllantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Masalan, Abu Nasr Forobiy ta'limni insonni komilikka yetkazuvchi asosiy vosita deb bilgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino ilm olish jarayonida aql va tajribaning uyg'unligi muhimligini ta'kidlagan. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan bunday g'oyalar bugungi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning ta'lim haqidagi qarashlari kompetensiyaviy yondashuv, integrativ o'qitish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

Ta'limning asosiy maqsadi – barkamol, mustaqil fikrlay oladigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi, ilhom beruvchi bo'lsa, o'quvchi izlanishga intiluvchi, faol ishtirokchi bo'lishi kerak. O'zbekistonda ta'lim tizimi mustaqillikdan beri tubdan o'zgardi va bugungi kunda xalqning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida katta hissa qo'shmoqda – bu nafaqat bilim berish, balki kelajak avlodni zamonaviy dunyoga tayyorlashga yo'naltirilgan. Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish uchun davlat "Umumiy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi 2030" kabi strategik hujjatlarni qabul qilgan. Bu maktablar, o'quv dasturlari, pedagoglar tayyorlash va boshqa ko'plab sohalarni modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'limda integratsiyaning mazmuni, avvalo, bilimlarning yaxlitlashuvini ta'minlash bilan izohlanadi. O'quvchi o'rganayotgan mavzuni boshqa fanlar bilan bog'liq holda qabul qiladi, natijada bilimlarning nazariy va amaliy tomonlari bir-birini to'ldirib boradi. Fanlararo integratsiya o'quv materiallarining o'zaro aloqadorligini ochib beradi, ular orasida umumiy qonuniyatlar, tushunchalar va usullarni anglashga yordam beradi. Integratsiya ta'lim mazmunining hayotiyliigi va amaliyligini oshiradi. Chunki real hayotda jarayonlar biror fanning doirasidagina emas, balki ko'plab fanlar bilan bevosita bog'liq holda kechadi.

Integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarni tizimli, mantiqiy va kompleks fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularda muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy fikrlash sifatlarini rivojlantiradi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir.

Ta'lim tizimida bilimlarni alohida fanlar doirasida o'qitish o'quvchilarda borliqni yaxlit idrok etish, bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash hamda fanlararo bog'liqlikni anglashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limda integratsiya muammosining paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlasak, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muammo pedagogikada insoniyatning oldingi avlodlarida to'plangan ijtimoiy tajribani udumlar, an'alar, xulqning etik me'yorlari, yashash qoidalari va hokazolar orqali uzatish ehtiyoji bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Bunday ta'lim integratsiyasi uch xil darajada namoyon bo'ladi:


- fanlar ichidagi mazmuniy integratsiya;
- fanlar orasidagi integratsiya;
- ta'lim turlari fanlari orasidagi integratsiya.

Fanlararo integratsiya o'quvchilarda mantiqiy va tizimli tafakkurni rivojlantirish, bilimlarni bir fan doirasidan ikkinchi fan sohasiga ko'chira olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining pedagogik samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga, xususan, bilish jarayonlari,

ijodiy fikrlash va o'quv motivatsiyasining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv sharoitida fanlararo integratsiya talabalarda hayotiy muammolarni kompleks yondashuv asosida hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu jihatdan, fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslarini ilmiy jihatdan yoritish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, fanlararo integratsiyada faol ta'lim metodlari o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu metodlar orqali o'quvchi tayyor bilimni emas, balki fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglagan holda bilimni mustaqil egallaydi. Bizga yaxshi ma'lumki, ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya pedagogik nuqtayi nazardan o'quv mazmunini yaxlitlashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarda kompleks fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik tamoyil hisoblanadi.


Fanlararo integratsiyaning pedagogik asosi, avvalo, ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash g'oyasiga tayanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida bilimlarning parokanda emas, balki yaxlit holda o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Chunki real hayotda uchraydigan muammolar biror bitta fan doirasida emas, bir nechta bilim sohalari kesishgan nuqtada hal etiladi. Shu sababli fanlararo integratsiya zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Fanlararo integratsiyaning mohiyati shundan iboratki, talaba bir mavzuni o'rganar ekan, uni boshqa fanlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lay oladi. Masalan, tabiat hodisalarini tushuntirish jarayonida fizika va matematika bilimlari birgalikda qo'llaniladi, tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda adabiyot, geografiya va madaniyatshunoslik bilan bog'liqlik yuzaga keladi. Natijada o'quvchida voqealarni ko'p qirrali idrok etish, muammoni turli nuqtayi nazardan ko'ra olish ko'nikmasi shakllanadi. Quyida fanlar orasidagi integratsiyani ko'rib chiqamiz. Tarix va adabiyot fanlarining integratsiyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilimni yanada chuqurroq, mazmunli va ta'sirchan tarzda yetkazishning muhim usullaridan biridir.

Bu ikki fan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri voqealarni fakt va dalillar asosida yoritadi, ikkinchisi esa ana shu voqealarning inson hayotidagi aksini, ruhiy kechinmalarini va badiiy ifodasini ochib beradi. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni, sanalar va faktlarni o'rgatadi. Adabiyot esa shu davr ruhini, insonlarning kechinmalarini, orzu va kurashlarini badiiy obrazlar orqali yoritadi. Shu sababli bu ikki fan bir-birini to'ldiradi. Masalan, Amir Temur davrini tarix fanida o'rganish orqali o'quvchilar uning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va siyosiy faoliyati haqida bilimga ega bo'ladi. Shu bilan birga, adabiyot fanida Alisher Navoiy ijodi orqali o'sha davrning ma'naviy muhiti, til boyligi va insoniy qadriyatlarini ochib beriladi. Natijada o'quvchi Temuriylar davrini nafaqat tarixiy jihatdan, balki badiiy va ma'naviy jihatdan ham tushunadi.




1-rasm: Amir Temur va Alisher Navoiy tasviri

Bundan tashqari, tarix va adabiyot fanlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ham alohida o'rin tutadi. Tarix fanida Bobur davlat arbobi va sarkarda sifatida o'rganiladi. U Hindistonda Boburiylar davlatiga asos solgan, murakkab siyosiy kurashlar olib borgan va o'z davrining muhim tarixiy voqealarida ishtirok etgan. Adabiyot fanida esa Bobur iste'dodli shoir va yozuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Uning mashhur asari "Boburnoma" nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan ham qimmatli asar hisoblanadi. Unda muallif o'z hayoti, yurishlari, tabiat tasvirlari va insoniy kechinmalarini samimiy tarzda bayon etadi. Shu jihatdan Bobur tarix va adabiyot fanlarini birlashtiruvchi ko'prik vazifasini bajaradi.




2-rasm: Zahiriddin Muhammad Bobur tasviri

Fizika va astronomiya fanlarining integratsiyasi. Fizika va astronomiya tabiatda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Astronomiya koinotning tuzilishi, yulduzlar, sayyoralar, galaktikalar va ularning harakatini o'rganadigan fan. Fizika esa tabiiy hodisalarni, jumladan, harakat, energiya, yorug'lik, issiqlik va boshqa jarayonlarning qonunlarini o'rganadigan fan. Masalan, sayyoralar harakati tortishish kuchi orqali tushuntiriladi. Bu fizikaning qonuni bo'lsa, astronomiya aynan shu qonun asosida sayyoralar orbitasini o'rganadi. Yoki yulduzlarning nuri va harorati fizikadagi energiya va issiqlik jarayonlari bilan bog'liq holda izohlanadi. Shuningdek, teleskoplar ishlashi ham fizika (optika qonunlari) va astronomiya (kuzatuv jarayoni)ning birlashgan natijasidir. Fizika yorug'likning qanday sinishi va qaytishini o'rgatsa, astronomiya shu bilimlar yordamida osmon jismlarini kuzatadi.



3-rasm: Optik asboblari

Biologiya va kimyo fanlari integratsiyasi. Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu ikki fan ham o'zaro bog'liq bo'lib, biologiya tirik tabiatni o'rgansa, kimyo esa undagi modda va reaksiyalarni tushuntiradi. Aynan shu uyg'unlik orqali murakkab hayotiy jarayonlar ilmiy asosda izohlanadi. Masalan, o'simliklarda sodir bo'ladigan fotosintez jarayoni biologiya va kimyo fanlarining integratsiyasiga yaqqol misol bo'la oladi. Biologiya bu jarayonni o'simliklarning oziqlanishi va kislorod ajratishi bilan bog'liq hayotiy faoliyat sifatida o'rganadi. Kimyo esa fotosintez davomida sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalarni, ya'ni karbonat anhidrid va suvdan glukoza hamda kislorod hosil bo'lishini tushuntiradi.



4-rasm: Fotosintez jarayonining bosqichlari

Integratsiyadan foydalanishning pedagogik asoslari ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarda chuqur va barqaror bilimlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik yondashuvdir. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim mazmuni alohida fanlar doirasida parchalangan holda emas, balki o'zaro uzviy bog'langan, mantiqan izchil va yaxlit tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Integratsiya pedagogik jihatdan fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish orqali talabalarning borliqni bir butun holda idrok etishiga, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashiga xizmat qiladi.

Pedagogik integratsiyaning asosiy mohiyati ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalarining o'zaro uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Bunda o'quvchi turli fanlarga oid tushuncha, qonuniyat va amaliy ko'nikmalarni yagona pedagogik g'oya asosida birlashtiradi. Natijada talabalarda faqat bilimlar majmui emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, fanlararo bilimlardan foydalanish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Bundan tashqari, pedagogik jihatdan integratsiya bir nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchidan, fan ichidagi integratsiya mavjud bo'lib, bunda bir fan doirasidagi mavzular o'zaro bog'lanadi; ikkinchidan, fanlararo integratsiya qo'llaniladi, ya'ni ikki yoki undan ortiq fan mavzuni yagona mavzu asosida birlashtiriladi; uchinchidan, nazariya va amaliyot integratsiyasi mavjud bo'lib, o'quvchi o'rganilgan bilimni hayotda qo'llaydi. Aynan shu shakl ta'limning hayotiylikini ta'minlaydi.

Pedagogik lug'atlarda ko'rsatilishicha, integratsiya ta'lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishini, o'quv-tajriba jarayoni bosqichlarining davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi. Fanlararo integratsiyaning muhim pedagogik asoslaridan yana biri – ta'limni amaliyot bilan bog'lashdir. Integratsiyalashgan darslarda o'quvchilar bilimlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki hayotiy misollar, amaliy mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlar orqali o'zlashtiradilar. Shuningdek, fanlararo integratsiya pedagogik jihatdan bilimlarning izchilligini va uzviyligini ta'minlaydi. Bir fan orqali o'zlashtirilgan tushuncha va ko'nikmalar boshqa fanlarda mustahkamlanadi va kengaytiriladi.

G. T. Soldatovanning fikricha, ta'lim berishning turli xil darajalari orasidagi integratsiyani amalga oshirish mexanizmida pedagogik jarayon va uning natijalarining uzluksizligi va yaxlitligini ta'minlash zaruriyati hamda o'qitishning diskret xususiyati orasidagi ziddiyat qarama-qarshiliklarning kurashi va birligi qonunini o'rgatishdagi integratsiyaning yuzaga chiqishiga misol bo'la oladi. Haqiqatan ham, pedagogik maqsadlarda ta'limning fan tizimi, texnik obyektlar va tabiiy bilimlarning obyektiv va ko'p tomonlama o'zaro bog'liqligi birligini bo'laklarga ajratadi. Pedagogik metodlar ta'lim jarayonini samarali o'tkazishning asosiy vositalaridir. Integratsiya asosida pedagogik metodlar talabalarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, mazmunli va amaliy qilib tashkil etishga yordam beradi.



Integratsiyadan foydalanishning psixologik asoslari inson psixikasi bilimlarini alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'langan tizim sifatida qabul qilinishi bilan izohlanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirish talabalarning tafakkurini yaxlit rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda fanlararo integratsiya psixologik jihatdan motivatsiyani ham kuchaytiradi. O'quvchi bilimning real hayotdagi ahamiyatini ko'rganida, unda ichki qiziqish shakllanadi. Bu esa o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bilimlar o'rta-sidagi bog'liqlikni anglash o'quvchida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, integratsiyalashgan ta'lim individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish imkoniyatini beradi. Har bir talaba ma'lumotlarni turlicha qabul qiladi: kimdir obrazlar orqali, kimdir mantiqiy tahlil orqali, boshqasi esa amaliy faoliyat orqali yaxshiroq o'zlashtiradi. Turli fanlar elementlarini birlashtirish esa har bir o'rganish uslublariga mos sharoit yaratadi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Fanlararo integratsiya psixologik jihatdan motivatsiyani ham kuchaytiradi. O'quvchining o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki qiziqishi, o'z kuchiga ishonchi va muvaffaqiyatga intilishi ta'lim samaradorligini belgilab beradi. Shu sababli integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda motivatsiyani oshirishga qaratilgan metodlardan foydalanish zarur.

Psixologik nuqtayi nazardan, o'quvchida barqaror motivatsiya shakllanishi uchun u o'zini faol subyekt sifatida his qilishi, ya'ni berilgan vazifani bajara olishiga ishonchi bo'lishi kerak. Bunda o'quvchiga uning imkoniyat darajasiga mos, ammo biroz murakkabroq vazifa berilganda, u o'z kuchini sinab ko'radi va rivojlanadi. Shuningdek, shaxs o'zining muvaffaqiyatga erisha olishiga ishonsa, uning ichki motivatsiyasi ortadi va faoliyati samarali bo'ladi. Bunday yondashuv nafaqat bilimlarni ongli o'zlashtirishga, balki shaxsning psixologik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Yana bir muhim jihat shundaki, integratsiyalashgan ta'lim talabada mustaqillik, ijodkorlik va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi.

## XULOSA

Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik asoslari shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv o'quvchilarning bilimlarni yaxlit holda qabul qilishiga, ularni turli vaziyatlarda qo'llay olishiga hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsiya orqali fanlar o'rta-sidagi uzviy bog'liqlik ta'minlanib, o'quv materiallari hayotiy va tushunarli shaklga keltiriladi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiyani samarali tashkil etish o'qituvchilardan yuqori kasbiy mahorat, puxta rejalashtirish va metodik tayyorgarlikni talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishonova K. Sh. international scientific and practical conference "actual issues of primary education: problems, solutions and development prospects". 2024-04-26, 662-bet.
2. Siddiqova S. G'. "Educational Research in Universal Sciences". ISSN: 2181-3515, 276-bet.
3. Jumayev N. P. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. ISSN: 2181-063X, 2021, 529-bet.
4. Marhabo Q. X. Ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsion yondashuvning mazmuni. "Academic Research in Educational Sciences". ISSN: 2181-1385, 2021.
5. Djaksilikova A. B. "Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish". <https://doi.org/10.5281/zenodo.11365853>
6. Ataxanova F. Z. "Dizayn loyihalash". Toshkent, 2018.
7. Abdullayeva B. S., Umarov A. Y., Saidova B. N. "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent, 2021.
8. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. "Libos tarixi". Toshkent, 2015.
9. Shumkarova Sh. P., Rajapova M. N. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Jizzax, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.